

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**HUDUDLARDA INSON SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YOʻLLARI**

Tojiyeva Muhayyo Valiyevna

Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti Mustaqil izlanuvchisi

Zarmed Universiteti oʻqituvchisi

tojiyevamuhayyo1213@mail.com

**ПРАВА ЧЕЛОВЕКА НА ТЕРРИТОРИЯХ РАЗРАБОТКА
ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ**

Таджиева Мухайё Валиевна

Научный соискатель Бухарского инженерно технологического института

Преподаватель Университета Зармед

tojiyevamuhayyo1213@mail.com

**HUMAN RIGHTS IN TERRITORIES DEVELOPMENT
WAYS OF IMPROVEMENT**

Tojiyeva Muhayyo Valiyevna

Independent Researcher of Bukhara Engineering Technology Institute

Zarmed University teacher

tojiyevamuhayyo1213@mail.com

Inson salohiyati bu professionalizm, bilimga intilish, axborot taʼminoti, sogʻliq, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi tomonlar va xislatlardan yuzaga keladigan bir fenomendir¹⁷.

Zamonaviy dunyoda yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va yanada rivojlantirish, barcha sohalarda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy hayot yangi inson resurslarini talab qiladi. Intensiv ilmiy-texnik transformatsiyalar sharoitida tezda qaror qabul qilishga qodir boʻlgan oʻz ishiga ijodiy yondashadigan va kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zamon talabiga aylandi.

Inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilm-fan sohasiga keng qoʻllanila boshlandi. Inson kapitali fan va texnika taraqqiy etgan zamonaviy dunyoda eng qimmatga aylangan resurs hisoblanadi.

¹⁷ Abduraxmonova Nigora Qalandarovna


Pedagogik innovatsiyalar va kasb-hunar taʼlimini boshqaruv hamda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bosh mutaxassisi

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Inson salohiyati - bu odamlar hayoti davomida to'plagan bilimlari, ko'nikmalari va sog'lig'i, bu ularga jamiyatning foydali a'zolari sifatida o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Xodimlarni boshqarishning o'ziga xos maqsadlari mavjud. (1-rasm).



1-rasm. Inson resurslarini boshqarish maqsadlari.

Xodimning mehnat salohiyati bir tomondan ishlab chiqarish faoliyatida ma'lum shartlarda ma'lum natijalarga erishishga qaratilgan jismoniy va ma'naviy imkoniyatlari to'plami bo'lsa, ikkinchi tomondan mehnat jarayonida takomillashish, ishlab chiqarishda o'zgarishlar bo'lishi oqibatida yuzaga kelgan yangi vazifalar, masalalarni yechish imkoniyatlaridir.

Xodimlarni boshqarishda o'z tajribasiga ega bo'lgan Janubiy Koreyani ko'rib chiqamiz. Xo'sh, nega aynan Janubiy Koreya? Buning javobi oddiy.

Birinchidan, Janubiy Koreya iqtisodiyoti yuksak yutuqlarga erishgan holda nihoyatda rivojlangan va dunyo tomonidan tan olingan mamlakat bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreya iqtisodiyoti butun dunyo bo'ylab kuchli yigirmatalik davlatlariga kiradi. Kuchli iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakat bo'lib, inson resurslarini boshqarish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilgandir.

Ikkinchidan, ta'lim tizimi xalqaro sifat va standartlarga javob beradi. Janubiy Koreya universitetlari va kollejlari yuqori malakali va tajribali o'qituvchilar tomonidan ta'lim beriladi.

Janubiy Koreyada inson resursini boshqarishga doir kasblarning bir necha turlari mavjud:

➤ inson resursini boshqarish direktori (xodimlar bo'limi boshlig'i): kadrlar bo'limining rahbari.

Ular kompaniya tomonidan xodimlarga qilinadigan munosabatlarni nazorat qilishadi.

Shartnomada aytilgan barcha shartlar ustidan nazoratni amalga oshirishadi.

➤ Ishga qabul qilish bo'yicha xodim: ishga yollash, ishdan ozod qilish va vazifalarni belgilash uchun javobgardir. Bu pozitsiya juda muhim va har qanday biznes bunday kasbga muhtojdir.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

➤ Tahlilchi: muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot institutlari yoki tadqiqot laboratoriyalarida ishlashadi. Ular har doim biznes uchun inson resurslari va bandlik muammolarini hal qilish uchun eng yaxshi yechimlarni topishlari kerak.

➤ Mutaxassislarni tayyorlash: xodimlarni ixtisoslashtirishga o'rgatish, shuningdek, ishni tushunishiga hissa qo'shishga yordamlashishdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, shuningdek, oldimizdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish inson resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Inson potentsialining eng muhim funksiyasi - bu iqtisodiy rivojlanishning rag'batlantirishi va yo'nalishini belgilovchi uzoq muddatli ehtiyojlarning boshlanishi. Inson salohiyatini ro'yobga chiqarish sohalari bir vaqtning o'zida mehnat salohiyatini ishlab chiqarish sohalari sifatida ishlaydi.

2023-yilning 19-sentabr sanasi tariximizning yana bir sahifasini zarhal satrlar bilan boyitdi. Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari bo'lib o'tdi hamda ushbu muhim siyosiy ahamiyat kasb etadigan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etib nutqni so'zladilar.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un ekanligi, mamlakatimiz global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etayotganligi haqida aytgan fikrlari butun yig'ilish ishtirokchilarining olqishiga sazovor bo'ldi. So'nggi 6 yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko'payganligi, Yangi O'zbekistonning eng ezgu va bosh maqsadi-2030-yilga qadar ushbu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirish ekanligi ham Yurtboshimizning nutqlaridan o'rin oldi. Davlatimiz rahbari aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega ekanligini nutqlarida keltirib o'tdilar.¹⁸

Bugungi globallashuv jarayonida innovatsiya har qanday mamlakatning eng muhim strategik resurslaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, yangi sanoat va moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish, innovatsiya-investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish, import o'rnini bosish, valyuta zaxiralarini to'plash ma'lum darajada innovatsion faoliyat bilan bog'liqdir.

Haqiqatan ham, inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas. Taniqli iqtisodchi olimlarning fikricha, inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshligini keskin pasaytirib yuborishi

I ¹⁸ Shaxzod No'monov - "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash Yangi O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlardan biridir"

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

mumkin. Mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun iste'dodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi.

Xulosa:

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasini raqamli rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish va inson salohiyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni tavsiya qilamiz:

1. Inson salohiyatini rivojlantirish uchun kadrlarning kasb mahoratini muntazam oshirish, ularning kasbiy (malaka va lavozim) jihatdan rivojlanishini ta'minlanish, insoniy resurslarning tajriba va qobiliyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish lozim ;

2. Xodimlarni chet el korxonalariga yuborish orqali ularni rag'batlantirish va malakasini oshirish; Korxona xodimlarining sifati va natijalariga ko'ra mehnatlarini muntazam ravishda rag'batlantirib borish (motivatsiya)ni yo'lga qo'yish lozim ;

3. Inson salohiyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli istiqbolli yondashuvlarni ishlab chiqish lozim

4. Janubiy Koreya tajribasidan foydalangan holda, xodimlarga chet elda Grantlar ajratish evaziga ularni o'qitib ishga yollash lozim.

5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova Nigora Qalandarovna Pedagogik innovatsiyalar va kasb-hunar ta'limini boshqaruv hamda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bosh mutaxassisi

2. Mirzohid Latifovich Sharipov Intellektual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari

I 3. Shaxzod No'monov -"Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash Yangi O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlardan biridir"

II 4. D.Shoumarov. Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. uzlidep.uz/news-of-party/3127., 04.10.2018.

5. Kene, F. "Selected economic works." M.: Sotsekgiz (1960).

6. Marks "Kapital"(1867)

7. O'zbekistonda mehnat va bandlik. – T.: O'zbekiston, 2021.

8. O'zbekiston raqamlarda. – T.: O'zbekiston, 2020.

9. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.